MUNAVVAR QORI ABDURASHITXONOV TO‘Y MAROSIMLARI HAQIDA

Jandreyeva Matluba Mamarajab qizi,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi o‘zbek tili va adabiyoti folklori instituti tayanch doktoranti
matlubajandreyevaoff@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Munavvar Qori Abdurashitxonning “O‘runli saxovat” hikoyasi va maqolalaridagi to‘y marosimlari haqidagi qarashlari, xitobnomasi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Munavvar Qori Abdurashitxon, publitsistika, maqola, saxovat, marosim, to‘y, aza, urf-odat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются взгляды Мунаввара Кори Абдурашитхана на свадебные церемонии и его высказывания в рассказе «О'рунли Саховаат» и статьях.*

Ключевые слова: *Мунаввар Кори Абдурашитхан, журналистика, статья, щедрость, церемония, свадьба, траур, традиция.*

Annotation. *This article analyzes Munavvar Qori Abdurashitkhan's views on wedding ceremonies and his proclamation in his work and articles "O'runli Sakhavat".*

Key words: *Munavvar Qori Abdurashitkhan, journalism, article, generosity, ceremony, wedding, mourning, tradition.*

KIRISH

O‘zbek xalqining ko‘plab milliy qadriyatlari orasida to‘y marosimlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlardan to‘y marosimlarida turli bazmlar tashkillashtirilgan. Bu tadbirlarda turli xil urf-odatlar amalga oshirilgan. Ammo qadimda to‘ylar qirq kecha-yu, qirq kunduz ortiqcha dabdaba bilan o‘tkazilgan va boshqa xalqlar rivojlanayotgan, bilim olayotgan davrda xalqimiz to‘y marosimlari bilan band bo‘lishgan.

Jadidlar o‘z davrining eng ilmli kishilari sifatida xalqni ozodlikka chiqarish harakatida bo‘lgan. Bunga faqatgina ilm orqali erishish mumkin ekanligini anglab yetishgan. Shu sababdan ularning oldida turgan birdan bir maqsadi yangi usul maktablarini ko‘paytirish va bolalarni bilimli qilish edi. Jadidlar matbuotda, o‘z asarlarida insonlarni uyg‘otishga harakat qilishdi. Jadid adabiyotining eng ilg‘or vakillaridan biri Munavvar Qori Abdurashitxonov ham matbuotda, ham o‘z asarlari orqali insonlarni qoloqlikdan chiqarib ma’naviyatli,bilimli qilishga harakat qilgan. Bolalarga alifbodan keyin o‘qitish uchun yozilgan qiroat kitobi “Adibus-soniy” dagi “O‘runli saxovat” hikoyasi ham shu mavzuda yozilgan va bolalarga to‘g‘ri yo‘l

ko‘rsatish vazifasini bajargan. Hikoyada boy o‘g‘liga to‘y qilmoqchi bo‘ladi va yor-u do‘stlaridan maslahat so‘raydi. Do‘stlari uch-to‘rt kun osh berishini, sozanda va hofizlarni chaqirib bazm qilishini tavsiya qilishadi. Dabdabali to‘y qilishini, nomini elga yoyishini aytishadi. Mol qadrini bilgan boy bu maslahatlarga javoban: “Aziz birodarlarim, to‘y degani bir saxovatdur. Saxovat esa faqir, muhtoj, och va yalang‘ochlarning haqlaridur. Osh berg‘anda shularg‘a bermoq lozimdur. …Xalqg‘a osh bermoq uchun sarf qiladurg‘on aqchalarimni maktab va madrasalarg‘a, faqir va muhtojlarg‘a ulashub, o‘g‘limni sunnatg‘a muvofiq xatna qildirsam deyman, shoyad siz hurmatlilar ham mani aybg‘a buyurmay, bu fikrimg‘a qo‘shilib, yordam bersangiz”[1] degan fikrlari keltiriladi. Bu orqali yoshlarga ta’lim bilan birlikda imkoniyatlarini ortiqcha isrofgarchilikka emas, ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirish kerakligini uqtiradi. Buning uchun bir boy misolida boshqalarga namuna bo‘lishga harakat qiladi. Munavvar Qori faqat bu kitobida emas, matbuot sahifalarida faol qatnashib, to‘y xarajatlarini kamaytirish, eskidan qolgan udumlardan vos kechish va yoshlarning ilmli qilish masalasiga alohida to‘xtaladi. Munavvar Qori “Nikoh to‘g‘risida”[2] maqolasida boy inson zakot bermasa hech kimning ishi bo‘lmasligini, ammo o‘g‘il uylantirib bazm bermasa xalq orasida malomatga qolishi haqida aytib o‘tadi. Albatta buni ham qoloqlik, bilimsizlik belgisi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Bu maqolada adib xitoy va qalmoqlardan qolgan eskicha udum ya’ni to‘ydan bir kun avval sozandalar bilan bazm qilinishi bizning dinimizda sha’ran xarom ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari kelin aravasi oldida ayollar qo‘shiq kuylashi va musiqalar chalishi, ayollar raqsga tushishi, buni begona erkaklar tomosha qilishi, o‘yinchilarga pul berilishi, o‘t yoqish marosimi kabi bir qancha eskilik belgisi bo‘lgan odatlarni tanqid qiladi va ularning dinimizda yo‘qligi, voz kechish kerakligini uqtiradi.

Boshqa bir maqolasida bu ortiqcha isrofgarchiliklarni to‘xtatish insonlarga foyda keltirishini aytadi. “Bul ishlarni man qilmoq- musulmonlarni din va dunyolarig‘a foyda yetkurmaktur. Dunyolarig‘a foyda shulki,bul xilofi sha’rilarini sababidin oxiratda tortadurg‘an dozax azoblaridin xalos bo‘lurlar, dunyolarig‘a foyda shulki, bachcha va yalochini bir kechalik muzdig‘a beradurg‘on o‘ttuz-qirq so‘mlari o‘z kissalarining manfaatig‘a qolur”[3]. Adib bu maqolasida bir qancha mahallalarda ba’zi eskicha udumlarni to‘ylarda qilayotgan insonlar mahalla jamoasiga qo‘shilmasin deb xutba o‘qilganligini va bunday mahallalar soni ko’payishini tilab qolaman deb yozadi. Ya’ni

[1] Munavvar Qori Abdurashitxonov, “Adibus-soniy”.
[2] “Taraqqiy”, 1906-yil, 3-fevral.
[3] “Taraqqiy”, 1906-yil, 7-fevral.

maqola va asarlari orqali namunali kishilarni ko‘rsatib, boshqalarni ham bu yo‘lga boshlashga harakat qilgan.

“Sho‘royi islom” qarornomasida to‘y va marakalar bilan bog‘liq qarorlari e’lon qilinadi. Qarornomada qimmatchilik va oziq-ovqat tanqis bo’lgan, ko‘plab bolalar va oilalar ko‘chalarda pulga ham ozuqa topolmay sarson bo‘lib yurgan, vaqtda va shu yilgi suvsizlik to‘y, maraka, gap, bazm, poyga, uloq va janoza kuni bo‘ladigan isroflarni bekor qilishga sabab sifatida keltirib o‘tadi. Insonlar ochlikdan qiynalar ekan, ortiqcha xarajat qilish hammani qiynashi tabiiy. Bu holda mansabdor shaxslarning chora ko‘rishi oqilona ish, albatta. Qarornomaning ikkinchi va uchinchi qismlari qiz va o‘g‘il to‘ylari haqida bo‘lib, unda taqiqlangan udumlar batafsil keltirib o’tilgan. Qiz to‘yidagi katta va kichik to‘y, tavoq qaytarish, qiz oshi berish, hayitlarda mol yoyib kelin ko’rish, sandiqlar, gulko‘rpalar kabi foydasiz molar, tuyalarda har xil narsalar ortib to‘y yuborish, qalin olish kabi ko‘plab eskicha urf-odatlarni qilish taqiqlangan. Oshna va mahalla kishilari bilan karnay-surnaysiz borib, kelinni olib kelishga ruxsat berilgan. Hozirgi kundagi muhim mavzulardan biri kuyov navkarlar sonini kamaytirish masalasi bu qarornomaga ham kiritilib. ularning soni 20-40 kishidan, kelin tomondan ayollar esa 10 kishidan oshmasligi belgilab qo‘yilgan. O‘g‘il to‘ylarda odamlarni chaqirib osh va uloq bermaslikni ham qarornomaga kirgizishgan edi. “Ushbu tartibg‘a muxolifat qilg‘on kishilarning ma’raka va to‘ylari to‘xtamli va aybnoma (protokol) yozub, shahar boshluqlarig‘a havola qilinadi. ….. Bunday kishilarg‘a qozilar shariatg‘a muvofiq qattiq jazog‘a mustahiq qilurlar”[4]. Sho‘royi islomiya raisi muovini sifatida Munavvar Qori Abdurashitxonov qarornoma chiqishida ishtirok etgan. Uning bu harakatlaridan zamonasining ilg‘or kishilari qatorida bo‘lganligini, xalq farovonligin uchun mujodala qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qarornomada taqiqlangan masalalar bugungi kunda ham muhim mavzulardan sanaladi. Hozirgi kunda ham kim o‘zarga to‘y qilish, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, dabdababozlik kuchaygan. Jadidlar o‘z davrida masalaga to‘g‘ri yondashgan holda qarorlar chiqara olgan va amalda joriy qilishgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu davrdagi har bir jadid o‘z asarlari va ijod faoliyatlari orqali jamiyatni yaxshilashga,ozodlikka, yoshlarni ma’rifatli qilishga harakat qilgan. Shu qatorda Munavvar Qori Abdurashitxonov ham insonlar hayoti yaxshilanishi uchun maslakdoshlari bilan birlikda faoliyat olib borgan. U “Isrof o‘rinsiz

[4] “Sho‘royi islom” qarornomasi, “Najot” gazetasi, 1917-yil,27-aprel.

va zaruratsiz yerlarga molni sarf etmakdir”[5] degan fikrda edi va buni aholiga ham tushintirishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munavvar Qori Abdurashitxonov, “Adibus-soniy”.
2. “Taraqqiy”, 1906-yil, 3-fevral.
3. “Taraqqiy”, 1906-yil, 7-fevral.
4. “Sho‘royi islom” qarornomasi, “Najot” gazetasi, 1917-yil,27-aprel.
5. Munavvar Qori Abdurashitxonov. “Qanday qullikka tushdi”, ilmiy asar, maqola, hikoyalar, T,: 2024.

[5] Munavvar Qori Abdurashitxonov. “Qanday qullikka tushdi”, ilmiy asar, maqola, hikoyalar, T,: 2024.